



The necessity of conducting linguistic analysis on corruption-related texts

Guljakhon ISROILOVA ¹

Republican Center of Forensic Expertise after H. Sulaymonova under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised
form 15 August 2025

Accepted 15 September 2025

Available online
05 October 2025

Keywords:

linguistic analysis,
corruption,
bribe,
briber,
euphemism,
ellipsis,
tacit agreement,
intonation,
punctuation marks.

ABSTRACT

Ushbu maqolada korrupsiyaga oid matnlarni lingvistik ekspertiza qilishahamiyati, zarurati, unda qo'llaniladigan lingvistik vositalar orqali pora berishda ishtirok etuvchilarning niyatlarini aniqlash, ushbu jarayonda nutqiy aktlar: undash, ko'ndirish, taklif, qo'rqitish, achinish, va'da berish kabilarning yuzaga chiqishi haqida fikr yuritilgan.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5-pp156-162>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Korrupsiyaga oid matnlarni lingvistik ekspertiza qilish zaruriyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

lingvistik ekspertiza,
korrupsiya,
pora,
poraxo'r,
evfemizm,
ellipsis,
to'xtam,
intonatsiya,
tinish belgilari.

Ushbu maqolada korrupsiyaga oid matnlarni lingvistik ekspertiza qilishahamiyati, zarurati, unda qo'llaniladigan lingvistik vositalar orqali pora berishda ishtirok etuvchilarning niyatlarini aniqlash, ushbu jarayonda nutqiy aktlar: undash, ko'ndirish, taklif, qo'rqitish, achinish, va'da berish kabilarning yuzaga chiqishi haqida fikr yuritilgan.

¹ Head of the Information Resource Center, Republican Center of Forensic Expertise after H. Sulaymonova under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan.
E-mail: guljahonjamolovna@gmail.com

Необходимость лингвистической экспертизы коррупционных текстов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

лингвистическая экспертиза, коррупция, взятка, взяточник, эвфемизм, эллипсис, умолчание, интонация, знаки препинания.

В данной статье рассматривается значение и необходимость лингвистической экспертизы текстов, связанных с коррупцией. Анализируется выявление намерений участников дачи взятки посредством лингвистических средств, используемых в экспертизе. Рассматриваются речевые акты, проявляющиеся в данном процессе, такие как: побуждение, убеждение, предложение, запугивание, апелляция к жалости, обещание.

KIRISH

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat, O'zbekiston, balki butun dunyo mamlakatlarning oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Chunki poraxo'rlik oqibatida fuqarolar o'rtasida davlat va amaldorlarga, ular olib borayotgan siyosatga nisbatan ishonchsizlik, norozilik kayfiyati uyg'onadi hamda u mamlakatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Korrupsiya jamiyatning turli jabhalarida o'sish va rivojlanishning to'xtab qolishiga, davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib boruvchi salbiy oqibatlarning ildizi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

“O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonunida: **“korrupsiya** — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”i[1, 3-m.] hisoblanishi aytib o'tilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida esa: “Korrupsiya [lot. corruptio – buzish, yo'ldan ozdirish; sotib olish] Mansabdor shaxslarning o'zlariga ishonib topshirilgan huquqlari va hokimiyat vakolatidan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishi (korrupsiya poraxo'rlik, mansabni suiiste'mol qilish va b. noqonuniy harakatlarni o'z ichiga oladi)”[2] tarzida izohlangan. Ma'lum bir shaxs yoki shaxslarning manfaatlariga xizmat qilish, ularni boshqalardan ustun qo'yish o'z-o'zidan qonun buzilishi orqali sodir bo'ladi. Chunki davlat va hokimiyat boshqaruv organidagilar ma'lum bir guruh manfaati uchun fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxl qilishlari mumkin. Eng achinarlisi, yozuvchi Abdulla Qahhor aytganidek: “O'g'ri kechasi yo'lingizni to'sib cho'ntagingizga qo'l soladi, pulingizni oladi, oladi-yu, qochadi-ketadi. Poraxo'r kuppa-kunduz kuni, yana hukumat idorasida o'tirib cho'ntagingizga qo'l soladi, pulingizni oladi-yu, qochib ketmaydi, jinoyatga sizni sherik qiladi”.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida pora oluvchi ham, pora beruvchi ham, pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxs ham jinoiy javobgarlikka tortilishi[3, 210-212-m.] belgilab qo'yilgan.

Afsuski, korrupsiyaga qarshi kurash, uning oldini olish borasida talaygina ishlar amalga oshirilishiga, bunday ishlar uchun qat'iy jazo choralari belgilab qo'yilganiga qaramasdan, bu kabi jinoyatlar tez-tez sodir bo'lib turmoqda. Bunday jinoyatlarni fosh etish, ishtirokchilarining bu ishga aloqasini, ishtirok etish darajasini o'rganish borasida lingvistik ekspertiza ahamiyatli hisoblanadi.

Ekspertiza jarayonida ushbu jinoyatni sodir etishda ishtirok etuvchi taraflarning telefon orqali yozishmalari, o'zaro suhbatlari, xabarlar orqali bir qancha savollarga javob topish mumkin. Ya'ni bu jarayonda tomonlarni korrupsiyaga olib boruvchi nutqiy aktlar: talab, undash, majburlash, iltimos, va'da, taklif, ko'ndirish kabilar bor yoki yo'qligini aniqlash hamda ushbu materiallardagi yashirin ma'nolarni, korrupsiya alomatlarini va manipulyatsiyalarni aniqlash va talqin qilish mumkin bo'ladi. Bu esa korrupsiyaviy faoliyat faktlarini o'rganishga, ishtirokchilarning roli va niyatlarini aniqlashga, shuningdek, ularning korrupsiya sxemalariga jalb etilish darajasini baholashga yordam beradi.

Tadqiqotchilar korrupsiyaga oid matnlar bo'yicha lingvistik ekspertiza o'tkazilishida quyidagilarga alohida ahamiyat berilishi lozimligini aytib o'tadi:

Yashirin ma'nolar va manipulyatsiyalarni aniqlash:

Korrupsiyaviy kelishuvlar ko'pincha berkitilgan bo'ladi, haqiqiy niyatlarni yashirish uchun evfemizmlar, metaforalar va boshqa lingvistik vositalardan foydalaniladi. Ekspert-lingvistlar bu yashirin ma'nolarni aniqlashi va zohiran zararsiz iboralar ortida korrupsiyaviy til biriktirish yashiringanini aniqlashlari mumkin.

Korrupsiya faktlarini aniqlash:

Ekspertiza pora taklifi, pul o'tkazish yoki muayyan harakatlar evaziga xizmat ko'rsatish bo'lganmi yoki yo'qmi, shuningdek, bu sxemada har bir ishtirokchining rolini aniqlashga yordam beradi.

Ishtirokchilarning niyatlarini aniqlash:

Matnni tahlil qilish, pora taklifi ixtiyoriy bo'lganmi yoki majburlash ostida amalga oshirilganmi, tomonlarning umumiy maqsadi bo'lganmi va ularning motivlari qanday bo'lganligini ko'rsatishi mumkin.

Jalb etilish darajasini baholash:

Lingvistik ekspertiza har bir ishtirokchining korrupsiyaviy sxemada qanchalik faol ishtirok etganini, kim tashabbuskor bo'lganini, kim esa faqat ijrochi bo'lganini aniqlashi mumkin.

Tergov versiyasini tasdiqlash yoki rad etish:

Ekspert xulosasi sudda muhim dalil bo'lishi mumkin, chunki u tergovning korrupsiya mavjudligi haqidagi versiyasini tasdiqlaydi yoki rad etadi.

Kommunikativ munosabatlarni tahlil qilish:

Ekspertlar ishtirokchilar o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning xususiyatini tekshirishlari, kommunikativ rollarni aniqlashlari, kim va qanday qilib voqealar rivojiga ta'sir qilganini aniqlashlari mumkin.

Matnning qonunga muvofiqligini aniqlash:

Ekspertiza, hujjatlardagi iboralar (masalan, shartnomalar) qonun talablariga javob beradimi yoki ularda korrupsiyaviy sxemalarning alomatlari bormi, shuni aniqlash muhim sanaladi[7].

Korrupsiyaviy matnlarni lingvistik ekspertiza qilish uslubi va yo'nalishlarini belgilab olish jarayonida badiiy matnlar hamda sud-tergov organlari harakatlari bilan to'plangan korrupsiyada ishtirok etuvchilar (pora oluvchi, pora beruvchi, vositachilar)

ning suhbatlari yozib olingan audio, video yozuvlardan, o'zaro suhbatlardan foydalanish mumkin. Ushbu suhbatlarda qo'llangan matn, ularda ishtirok etgan lingvistik-stilistik vositalar (evfemizm, ellipsis, to'xtamlar, intonatsiya), ko'rsatish olmoshlari yoki ma'lum bir so'z va iboralar orqali ishora qilishlarni tahlil qilgan holda lingvistik ekspertiza o'tkazilib, berilgan savollarga javob berish mumkin bo'ladi.

Quyida biz A.Qahhorning poraxo'rlik illati hajv bilan tilga olingan "Tobutdan tovush" dramasi olingan nutqni tahlil qilish orqali bunday korrupsiyaviy holatlarni lingvistik ekspertizadan o'tkazishga harakat qilamiz:

Shobarot (kiradi). *Salom...*

Suxsurov. *Ertaga idoraga borgan, degan edim-ku!*

Shobarot. *Jon aka, ertagacha sabrim chidamadi.*

Suxsurov. *Xo'sh, nima deysan?*

Shobarot. *Shojalil akamga kecha ovqat olib borgan edim, akam kostyumlarini chiqarib, nimcha so'ratiptilar...*

Suxsurov. *Xo'sh?*

Shobarot. *„Ishim chatoq“ deganlari emasmikan?*

Suxsurov. *Bo'lsa bordir.*

Shobarot. *Shunga juda xafa bo'ldim; akam-ku mayli, turmaning qozonidan rizqi boricha yeydi, bu opada sizga gap tegib qolmasa deyman... Har nima bo'lganda ham akam **qo'l ostingizda ishlagan** edilar, **bir oxurdan yem yegansizlar...** (Unga yer ostidan nazm soladi.)*

Suxsurov. *(uning shamasini tushunib) . Endi, uka, bir oxurdan yem yegan bo'lsak ham har kim o'zining tishi bilan chaynab, o'zining kekirdagi bilan yutgan! Har kimning go'ri boshqa, munkar-nakiri boshqa degan gap bor.*

Shobarot. *Shundoq-ku, lekin ish katta ko'chsa go'rlaring qo'shilib ketarmikan deyman... Yana o'zingiz bilasiz...*

Suxsurov. *(kulib). "Yordam qilsang qilganing, bo'lmasa akam **oyog'ingdan tortadi**" deganingmi bu?*

Shobarot. *Xudo saqlasin! Unaqada akamdan kechvoraman!..*

Suxsurov. *(uning gapiga quloq solmay). Mening oyog'imga qo'li yetmaydi, yetganda ham tortmaydi, tortolmaydi!*

Shobarot. *Shuni aytaman-da, og'aynisizlar...*

Suxsurov *(quloq solmay). Men yiqilsam ustiga yiqilaman! Majaqlab tashlayman! Buni akang yaxshi biladi. Bundan tashqari, ishi hozir tergovdami-ikki ko'zi, ikki qulog'i menda-men kerak. Kesilib turmada yotganida ham qutulgani talpinsa mening qo'limni paypaslaydi; qamoq muddatini bitiribmi, bitirmasdanmi kelganida yana men kerak-ish so'rab mening oldimga keladi! Tushundingmi?*

Shobarot. *Albatta, shuning uchun sizga **sig'inib keldim**-da. **Qo'llaysiz, yo'l ko'rsatasiz**, deb keldim.*

Suxsurov. *(birdan). Chaqani kattaroq berib advokat sol! Yo'l shu!*

Shobarot. *Siz menga bozor bahosi gapni gapirayotipsiz, Nusrat aka.*

Suxsurov. *Men davlat ishidagi odamman, senga bundan ortiq bir nima degani... Hm... Vaqtim yo'q!*

Shobarot. *Qachon vaqtingiz bo'ladi? Bugun o'n birinchi, nechanchi chisloda kelay?*

Suxsurov sochini silagan bo'lib, barmoqlari bilan "ikki yarim"ga ishora qiladi. Shobarot buni fahmlamaydi.

O'n beshlarda kelsam bo'ladimi?

Suxsurov. *(uning befahmligidan bo'g'ilib). Ikki yarim! Ikki yarim ming!*

Shobarot. *(bir ozdan keyin tushunadi. Hayron). Ikki yarim ming! Yangi pul bilanmi?*

Suxsurov. *(kalaka qilib). Eski puling bormi?*

Shobarot. *Shu ikki yarim ming so'mlik ishmi?*

Suxsurov. *Shuning uchun advokat sol, dedim-da!*

Shobarot *(mung'ayib). Akam bilan oralarigda ushalgan nonning hurmati yo'q ekan-da?*

Suxsurov. *(achchig'i kelib). Gapni ko'paytirma, menga hech narsa tegmaydi. Tegishlik odam bor! Men senga odamgarchilik qilmoqchiman! Akangga yomon modda qo'yilgan, yigirma besh yil-a!*

Shobarot. *Obbo xudo urdi!..*

Suxsurov. *Qonunga chap berib, shuni besh yilga keltirib beradi. Mayli besh yilga kesilsin, u yog'iga yana chap beramiz*

Shobarot *(pul uzatadi). Rahmat, aka, bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin.*

Suxsurov *(ko'rpaning qatini ochib). Qo'y! Men buni "xamir uchidan patir" deb beraman. Menga, o'zimga cho'talni keyin berasan, mayli... Menga qara, mening bu ishga bosh qo'shganimni birovga aytsang... Yangi qonunni eshitdingmi. Pora berganga ham o'n besh yil!..*

Shobarot. *Bilaman. Bilaman!(Jur'at qilmasdan.) U kishi bilan necha pulga gaplashgan bo'lamiz?*

Suxsurov *(achchig'i keladi). Ahmoq! Bunaqa ishda savdolashib bo'ladimi! ...*

Keltirilgan dialogik matnda hibsdagi kishining ukasi hamda "davlat ishidagi odam" o'rtasida jinoyat uchun qamalgan akani ozod qilish, bu yo'lda qonunga chap berish, boshqa mansabdor amaldorlar orqali jazoni yengillatish masalasi aks etgan. Nutqda dastlab Shobarot yashirin po'pisa yo'li bilan Suxsurovga ta'sir qilib, akasiga yordam berishga undaganini ko'rishimiz mumkin: *Har nima bo'lganda ham akam qo'l ostingizda ishlagan edilar, bir oxurdan yem yegansizlar...* O'zbek tilida uch nuqta so'zlovchining ma'lum bir maqsadini, aytilgan fikrning davomi borligini bildiradi. Bu o'rinda esa uch nuqta orqali yozuvchi Shobarotning nimalargadir shama qilganligi, oldingi fikrlarning natijasi yaxshi yoki yomon bo'lishiga ishorasini ko'rsatib bergan. Ma'lumki, **oxur** – chorva mollariga suv, yem-xashak solib beriladigan moslama, idish hisoblanadi. Bitta oxurga bir xil ozuqa solinadi va bunda Shobarot "akam ayblangan jinoyatga siz ham sheriksiz, yordam berishga majbursiz" demoqchi bo'ladi. Ammo Suxsurov anoyilardan emas. Akasiga qo'yilgan ayb og'irligi, uni 25-yilga qamalib ketishini, unga hech qanday zarar berolmasligini aytib, oxiri tegishli odamlarga berib, ishni hal qilishga ko'ndiradi. Va uni kimgadir aytsa, qonunni ro'kach qilib, o'zi ham qamalishini aytib qo'rqitadi.

Matnda korrupsiya faktlari mavjud ekanligi ishni "yengillatib berish", "tegishli odam"ga berish, qilgan yordami uchun o'zi uchun ham "cho'tal-ulush, hissa" ("Ikki yarim! Ikki yarim ming!", "Men buni "xamir uchidan patir" deb beraman. Menga, o'zimga cho'talni keyin berasan, mayli..." olishi kabi aniq nutqiy faktlar orqali bayon qilingan.

Ushbu nutq jarayonida tomonlarni korrupsiyaga olib boruvchi nutqiy aktlar: **qo'rqitish**- *Men yiqilsam ustiga yiqilaman! Majaqlab tashlayman! Buni akang yaxshi biladi(bilgani uchun ham meni sotolmaydi demoqchi. Bordi-yu, shunday qilsa nima bo'lishini ham biladi), kesilib turmada yotganida ham qutulgani talpinsa mening qo'limni paypaslaydi; qamoq muddatini bitiribmi, bitirmasdanmi kelganida yana men kerak-ish so'rab mening oldimga keladi! Tushundingmi? Men senga odamgarchilik qilmoqchiman! Akangga yomon*

modda qo'yilgan, yigirma besh yil-a; iltimos- Albatta, shuning uchun sizga sig'inib keldim-da. Qo'llaysiz, yo'l ko'rsatasiz, deb keldim; va'da berish- Qonunga chap berib, shuni besh yilga keltirib beradi. Mayli besh yilga kesilsin, u yog'iga yana chap beramiz; undash - Chaqani kattaroq berib advokat sol! Yo'l shu!(advokatga ko'p pul ketadi, shunga men bilan kelish demoqchi); ko'ndirish - Qo'y! Men buni "xamir uchidan patir" deb beraman. Menga, o'zinga cho'talni keyin berasan, mayli... Menga qara, mening bu ishga bosh qo'shganimni bironvga aytsang... Yangi qonunni eshitdingmi. Pora berganga ham o'n besh yil!..(qonuni ro'kach qilib qo'rqitib, pora berganni aytmaslikka ko'ndiryapti)

Shobarot. Nusrat akam bormilar?

Q o r i. Borlar, lekin bugun siz bilan gaplashgani fursatlari bo'lmaca kerak, Obidjon kelganlar... ziyofat...

Ne t a y x o n (kirib). Keling... Ko'nglimdagi ishni qildingiz-da! Obidjonga shunaqa mototsikl oli6 qo'yish esimga kelmagan ekan, juda yaxshi bo'ldi!

Shobarot. (nima deyishni bilmay). Nusrat akamda ishim bor edi.

Ne t a y x o n. Mayli, mayli, uyalmang! Agap uyalsangiz, Obidjonga o'zim tuta man.

Suxsurov (kirib coatiga qarab). Soat olti yarim, odamlarga nima bo'ldi? Hammasi o'ldimi, qirilib ketdimi?

Ne t a y x o n. Shobarot akam Obidjonga sovg'a olib keliptilar.

Suxsurov. Rahmatyka! Barakalla, sovg'a degan mana bundoq bo'пти! Ofarin! (Yig'lamsirab.) Sen mening chin do'stim ekansan! Netayxon, sen Obidjondan xabar ol.

"Biron poraxo'rning bilagidan oqqan moyni itday yalaydi; biron «poraxo'r hurkmasdan olsin, bemalol yesin" deb poraning otini "sovg'a", "hadya", "to'yona", "yordam" qo'yib beradi"- deb yozadi A.Qahhor. Yuqorida keltirilgan parchada Shobarot akasining ishini yengillatish evaziga olib kelgan (yoki shunchaki o'zi minib kelgan) mototsiklini porani "sovg'a" deb olib o'rganib qolgan Suxsurov va uning xotini buning uchun hech narsa qilmasdan shunchaki tortib olishadi. Suhbatning davomida ma'lum bo'ladiki, mototsikl Shobarotning ishi uchun hech narsa qilib bera olmadi.

...Endi, uka, men Obidjon akangni kurortga yubormoqchiman. Sen bu odamni bilmaysan, tuzalib kelsa hammamizga ham kerakli cho'loq... Shuni esingdan chiqarmasang, bas!

Shobarot (ensasi qotib). Qancha olib kelay?

S u x s u r o v. Himmatning biladi... Men bir yuz ellik beraman. Sen ham shuncha berishing...

Shobarot. Iye...

Suxsurov. Shart emas...

Sh o b a r o t (do'ng'illab). Tushunolmay qoldim!...

Suxsurov. Nimasiga tushunmaysan, menga hali yalatganing ham yo'q-ku!

Shobarot. Iye, mototsikl o'ringa o'tmaydimi??

Suxsurov. Men sendan mototsikl so'radimmi?

Dialogik nutqdan ma'lum bo'lyaptiki, "tegishli odam" uchun ikki yarim ming, Obidjon uchun mototsikldan vositachi haqi qolmayabdi go'yo. Bizga ma'lumki, **yalash** orqali biron narsaning mazasini sezsa bo'ladi, lekin to'ymaydi. Yozuvchi Suxsurov tilidan "**yalatganing yo'qku**" deya shuncha narsani o'zi uchun olsa ham, to'ymasligini, pora olishga o'rganib qolganlarning ahvoli "yeb to'ymagan, yalab to'yarmidi" iborasiga naqadar mosligini ko'rsatib berolgan, nazarimda. "Hammaga kerakli cho'loq"-Obidjonni kurortga yuborish bahonasida yana bir yuz ellik ming pora so'raydi. Buni otini esa boshiga ish tushgan odam tarafidan ko'rsatilayotgan "himmat" ataydi. Berilgan matnni tahlil qilib

shunday xulosaga kelish mumkinki, unda korrupsiya faktlari bor, ishtirokchilarning niyatlari ham aniq. Buni qo'llanilgan so'z va iboralar orqali dalillash mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, lingvistik ekspertiza korrupsiya bilan bog'liq ishlarni tergov qilish va sudda ko'rib chiqish uchun muhim vosita hisoblanadi, chunki u yashirin faktlarni, sharoit va niyatlarni aniqlashga imkon beradi. Oddiy o'qish yoki yozuvlarni eshitishda ko'zga tashlanmagan narsalar ekspertiza jarayonida yashirin ma'noda qo'llanilgan lingvistik vositalarni tahlil qilish orqali aniqlanishi va bu jinoyatda korrupsiya faktlari, ishtirokchilar niyatlari, ushbu jarayonga jalb etilish darajasini aniqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2,3,4 tom. Toshkent-2020.
3. O'zbek tili me'yorlari (punktuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr, 2021.-232 b.
4. Е.И.Галяшина. Судебная лингвистическая экспертиза коррупционного дискурса: предмет, задачи и компетенции. Вестник Университета имени О.Е.Кутафина (МГЮА). 2016. №2. С. 6-14.
5. Д.Л.Карпов. Лингвистическая экспертиза текста по антикоррупционным делам. Учебное пособие.-Ярославль-2018.
6. Вязигина Н.В. Лингвистическая экспертиза по делам, связанным с коррупцией: проблема провокации взятки [Текст]. // Коммуникативистика в современном мире: материалы III Международной научной конференции. – Барнаул, 2012. – с. 190-193.
7. Анализ стратегии взяткодателя в подготовке экспертизы по антикоррупционным делам **Д. Л. Карпов, Д. Е. Пожилова**// *Социальные и гуманитарные знания*. 2018. Том 4, № 1, 33-48с.
8. **Абдулла Қаҳҳор. Сўнгги нусхалар (Тобутдан товуш) (комедия) 20.03.2012 Ziyouz.uz**